
Linguistic theory of Deixis: classical and modern views

Negmatova Mumtozbeqim Ulugbek qizi
negmatovamumtozbeqim@gmail.com

Doctoral student,
Tashkent State Transport University

Scientific advisor: **Bayjanova Okila Iskandarovna**³

oqilabayjanova89@gmail.com

Associate Professor, PhD, Department of
Translation Theory and Practice,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation

This article studies the theories of the phenomenon of deixis, lists the main points of research on the emergence of this term and its research to date. Also, classical and modern views on the types of deixis are studied and analyzed using the comparative-historical method. The first hypotheses about deixis and who later studied it are studied. The work carried out in this area, the emergence of deixis, their role in linguistics, what types there are and the importance of studying their types are also discussed, and research in this area will be very useful for researchers. This is because the study of deixis serves as the basis for the fields of pragmatics, cognitive linguistics and linguoculturology in modern linguistics. The expression of deixis through paralinguistic means was also discussed, and their importance in the speech process was discussed. The difference between deixis and anaphora has not been resolved to this day, and the similarities and differences between the two concepts were compared. We can say that the importance of studying the phenomenon of deixis has been explored in all aspects.

Keywords

Anaphora, deixis, types of deixis, discourse, allusion, indexicals, indicators, origo, organon, pragmatics

Deyksisning lingvistik nazariyasi: klassik va zamonaviy qarashlar

Negmatova Mumtozbeqim Ulug'bek qizi
negmatovamumtozbeqim@gmail.com

Tayanch doktorant,
Toshkent davlat transport universiteti

Ilmiy rahbar: **Bayjanova Oqila Iskandarovna**
oqilabayjanova89@gmail.com

Tarjimanazariyasi va amaliyoti kafedrası
dotsenti, f.f.f.d., (PhD),
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada deysis hodisasi borasidagi nazariyalar o'rganilgan bo'lib, bu terminning vujudga kelishi va bugunga qadar tadqiq etilishi borasidagi tadqiqotlarning asosiy nuqtalari sanab o'tilgan. Shuningdek, deysis turlari borasidagi klassik va zamonaviy qarashlar o'rganilib, qiyosiy-tarixiy metod

³ Negmatova M.U. — ORCID: 0009-0000-4031-8388

yordamida tahlil etiladi. Deyksis borasidagi ilk farazlar hamda keyinchalik uning kimlar tomonidan tadqiq etilishi o'rganilgan. Bu sohada amalga oshirilgan ishlar, deyksislarning vujudga kelishi, ularning tilshunoslik fanidagi o'rni, qanday turlari borligi hamda turlarini o'rganishning ahamiyati haqida ham so'z yuritilgan bo'lib, bu boradagi izlanishlar, tadqiqotchilar uchun juda ham manfaatli bo'ladi. Bunga sabab, deyksislarni o'rganish bugungi zamon tilshunosligida pragmatika, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya sohasi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, deyksislarning paralingvistik vositalar yordamida ifodalanishi haqida ham so'z yuritilgan bo'lib, nutq jarayonida ularning ahamiyati borasida fikrlar keltirib o'tilgan. Deyksislarning anafora bilan farqi esa bugungi kunga qadar o'z yechimini topmagan bo'lib, har ikki tushuncha o'rtasida o'xshash va farqli jihatlar solishtirib o'tilgan. Deyksis hodisasini o'rganishning ahamiyati har jihatdan tadqiq etilgan deya olamiz.

Kalit so'zlar Anafora, deyksis, deyksis turlari, diskurs, ishora, indeksikallar, ko'rsatkichlar, origo, organon, pragmatika

Лингвистическая теория Дейксиса классические и современные взгляды

Негматова Мумтозбегим Улугбековна

negmatovamumtozbegim@gmail.com

Базовый докторант,
Ташкентский государственный
транспортный университет

Байжанова Окила Искандаровна

oqilabayjanova89@gmail.com

Доцент, д.ф.ф.н. (PhD), Кафедра теории и
практики перевода,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация

В данной статье изучаются теории феномена дейксиса, перечисляются основные направления исследований, посвященных возникновению этого термина и его изучению на сегодняшний день. Также рассматриваются и анализируются классические и современные взгляды на типы дейксиса с использованием сравнительно-исторического метода. Изучаются первые гипотезы о дейксисе и те, кто впоследствии его изучал. Обсуждаются работы, проведенные в этой области, возникновение дейксиса, его роль в лингвистике, типы дейксиса и важность его изучения, что делает исследования в этой области весьма полезными для ученых. Это связано с тем, что изучение дейксиса служит основой для таких областей современной лингвистики, как прагматика, когнитивная лингвистика и лингвокультурология. Также рассматривается выражение дейксиса паралингвистическими средствами и его значение в процессе речи. Различие между дейксисом и анафорой до сих пор не выяснено, и сравниваются сходства и различия между этими двумя понятиями. Можно сказать, что важность изучения феномена дейксиса исследована во всех аспектах.

Ключевые слова Анафора, дейксис, виды дейксиса, дискурс, иллюзия, индексикалы, индикаторы, ориго, органон, прагматика

Kirish

Til jamiyatning ajralmas bo'lagi. Inson bor ekan til mavjud bo'ladi va tilshunoslik fani taraqqiy topib undagi izlanishlar kun sayin ortib boradi. Bugungi kunda tilshunoslik oddiy va zerikarli fan emas, aksincha o'zidan o'ndan ortiq fanlarni ajratib chiqargan va dunyo tilshunos olimlarining diqqat markazini bir nuqtada jamlagan, hali oldida juda ko'p hal etilmagan masalalari mavjud bo'lgan ilmning bir tarmog'idir. Xuddi shunday masalalar qatorida, deyksis nazariyasi haqida ham to'xtalib o'tishimiz mumkin. Tilshunoslikning semiotika bo'limida vujudga kelgan, pragmatika sohasining asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan, deyksis nazariyasi ham nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Deyksislar gapda voqelikka ishora qiladi. Ya'ni so'zlovchi gapirayotgan vaziyatdan kelib chiqqan holda, til birliklari orqali vaziyatni oydinlashtirib beradi. Deyksislarni o'rganish, fanda kim? nimaga? qachon? qayerda? qay yo'sinda ishora qilayotganligi ochiqlashga xizmat qiladi. Bu orqali esa nutqning ochiq-ravshan, maqsadli va samimiy amalga oshishini ta'minlash mumkin. Deyksislarni xato qo'llash esa suhbat jarayonida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi va bu orqali kommunikativ maqsad noto'g'ri ifodalanib turli nizolarga sabab bo'lishi ham mumkin.

Asosiy qism

Deyksis nazariyasini tadqiq etish XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri kelsa-da, bu boradagi ilk farazlar qadimgi faylasuflar Aristotel va Appoloniylarni qarashlariga borib taqaladi. Ilk bora ular, o'z asarlarida tilda ko'rsatkich birliklar borligini, ularning nutq vaziyatiga va vaqtiga ishora qilishini ta'kidlab o'tishgan. Keyinchalik lingvistikaga bu tushunchani olim K. Byuler kiritgan bo'lib, u o'zining "origo" modeli orqali bu tushunchani

asosli izohlab bergan (Byuler, 2000). Shuningdek, E. Benvenistning "subyektivlik" nazariyasi ham deyksislarni isbotlovchi tushuncha bo'lib, keyingi ilmiy izlanishlar uchun asos vazifasini bajargan (Benvenist, 1974). Byuler ishlab chiqqan "organon" modeli fanga o'zgacha yo'nalish olib keldi va uning zamirida bir qator yangi qarashlar shakllandi. "Organon" tilning so'zlashuvdagi modeli bo'lib, uning atrofida uch asosiy tushuncha yotadi. Bular tilning ifoda, ta'sir va tasvir funksiyasi hisoblanadi. Ifoda yo'nalishida so'zlovchi va uning ichki holati, ta'sir bo'limida tinglovchi, ya'ni ikkinchi shaxsga yo'naltirilganlik ifodasi va so'ngisida tasvir, aniqrog'i gapirilayotgan obyekt yoki voqea-hodisa borasidagi fikrlar jamlanadi. Bu funksiyalar nutq belgilari orqali amalga oshiriladi va unda uch tomon ishtirok etadi. Ular *so'zlovchi, tinglovchi va obyekt* ya'ni gapirilayotgan narsa yoki hodisalar. Ayrimlar bu tizimni tilshunoslikda uchburchak belgisi orqali ifoda ham etishadi. Ya'ni "organon" ning uch burchagi bo'lib, ular *so'zlovchi, tinglovchi va "u"* - narsa yoki hodisa. Har uchchalasi bir-birini to'ldiradi, va nutqda biri-birini talab etadi. Bu uch funksiya deyksisni amalda qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilsa, "Origo" nazariyasi, tilda deyksisning mavjud bo'lishini talab qiladi. Byuler fikriga ko'ra, "origo" deyksisning "*nol nuqtasi*" hisoblanadi. U 3 ta birlikdan tashkil topgan: men-shu yerda-hozir. Bu kompozitsiya deytik elementlar hisoblanib, so'zlovchi o'zgarsa "origo" ham o'zgarib turishini ta'minlaydi (Byuler, 2000). Darhaqiqat, "origo"ning o'zgarishi, bevosita nutq elementlarining o'zgarishiga olib keladi. Masalan: dialoglarda "men" nuqtada turgan shaxs, "sen" nuqtaga qarata so'zlaydi. Bunda ko'rsatkichlar ikki yoqlama olib boriladi va jarayon mobaynida vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turadi. Ya'ni,

so'zlayotgan kishi "men"ga ko'chadi, tinglayotgan esa "sen".

Byuler bu nazariyani ishlab chiqqandan so'ng pragmatika sohasi tilshunoslari ham uning fikrlari ustida atroflicha ish olib boradilar. Xususan, J.Layonz Byulerning "origo" va "organon" modellarini rivojlantirib, o'z qarashlarini ifoda etgan. U deysisni an'anaviy tarzda uch turga ajratgan.

1. Shaxs deysisi;
2. Vaqt deysisi;
3. Joy deysisi.

Layonzning deysislarning uch turga, ilmiy asoslab bo'lib berganligi, deysislar ustida ish olib borayotgan olimlar uchun ham juda manfaatli bo'lgan. Har bir turni alohida o'ranish, fandagi chalkashliklarni bartaraf etib, har bir tur doirasida mukammal va salmoqli ish olib borishni ta'minlagan. Shuningdek, olim o'zining "Semantics" asarida deysislarni havola bo'lakning asosi sifatida ta'riflaydi. Anafora esa deysis vositasida vujudga kelgan ikkinchi darajali hodisadir. Shuningdek, deysislar tilning nutq vaziyatiga bog'liqligini va yuzma-yuz aloqa paytida vujudga kelishini ta'riflaydi (Lyons, 1977). Ya'ni, agarda nutq vaziyati, mavjud bo'lmasa deysislar ham vujudga kelmaydi. Chunki deysislar nutq vaziyatidagi holatlarni ko'rsatuvchi birliklar hisoblanadi.

Yana bir mashhur tilshunos olim Ch.Filmorning pragmatika fani doirasidagi izlanishlari ham deysislarni chuqur hamda tizimli ravishda o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan, Ch. Filmor deysislarni 5 turga ajratgan va ushbu turlar bugungi kungacha shu uslubda o'rganilib kelinadi. Ular:

1. Shaxs deysislari;
2. Vaqt deysislari;
3. Joy deysislari;
4. Diskurs deysislari;
5. Ijtimoiy deysislardir.

Shuningdek, olimning tahlillarida nafaqat deysislar tadqiq etiladi, balki ularning nutq vaziyati o'rtasidagi holati ham chuqur tadqiq etiladi. Aynan, shu uslubi bilan Filmorning izlanishlari, deysis borasida ilmiy ishlar amalga oshirgan olimlarning tadqiqotlaridan ajralib

turadi (Fillmore, 1971). Darhaqiqat, olim nafaqat ilmiy nazariyalarni fanga kiritgan, balki ularning amalda qo'llanilishini ham tadqiq etgan hamda o'z ilmiy izlanishlarida misollar bilan izohlab o'tgan.

Tilshunoslikning pragmatika sohasi rivojlangani sayin yana bir pragmatikashunos olim S.C. Levinson deysislarni fanda chuqur tadqiq etgan. Uning izlanishlari Filmor va Layoznlarning ilmiy qarashlarini tahlil etgan va o'z fikrlari bilan tizimli ravishda bog'lagan. Levinsonning "Pragmatics" asari pragmatika sohasida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar tomonidan eng kerakli manba sifatida talqin etiladi. Aynan shu asarda, Levinson deysislarni mufassal tahlil etgan bo'lib, uning xulosalariga ko'ra deysislarni o'rganish nafaqat pragmatika sohasida, balki semiotika fani doirasida ham muhim ahamiyatga ega (Levinson, 1983). Bunga sabab esa, deysislarning nutq vaziyatini yanada oydinlashtirishi hamda gapda anglashilayotgan ma'noga e'tibor qaratushidadir.

Deysislarni o'rganish jarayonida ularni turlarga bo'lib o'rganish ancha ommabop va keng tarqalgan usullardan bo'lib, har bir tur juda ham qiziqarli va yangiliklarga boy qismlarni o'z ichiga oladi. Dunyodagi har bir tilda eng ko'p tarqalgan deysis turi bu shubhasiz, shaxs deysislaridir. Shaxs deysislari so'zlashuvda shaxsga ishora qiladi. Bizga ma'lumki, deysislarning asosiy vazifasi ham, ishora qilish deganidir. Shu sababdan ham so'zlashuv jarayonidagi qaysi shaxs bo'lmasin, nutq vaziyatida ishtirok etayotgan shaxslar deysis maqomida bo'ladi. Dialoglarda birinchi va ikkinchi shaxslarning mavjudligi, standard qoida hisoblanadi. Ya'ni har ikkisidan biri bo'lmasa, dialog vujudga kelmaydi. Ammo bu dialogarda yashirin uchinchi shaxs, ya'ni "u" olmoshi ham aksar hollarda mavjud bo'ladi. Bunga sabab, ikki shaxs o'rtasidagi suhbat bevosita uchinchi shaxs, narsa, predmet yoki hodisa haqida ketadi. Shunday ekan, shaxs deysisi o'z-o'zidan uch turga bo'linishi tabiiy hol ekan. Dialoglarda esa ikki shaxs o'rtasida "deyktik markaz" muhim o'rin tutadi. Deyktik

markaz esa Byulerning "origo" nazariyasiga borib taqaladi (Byuler, 2000). Bunda *men* koordinatasi doimo nutq markazida bo'ladi va agarda so'zlovchi tinglovchiga nutq navbatini bersa, deyktik markaz ham unga o'tadi.

Deyksislarni tadqiq etish jarayonida, vaqt deyksislari ham shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. Bunga sabab esa vaqt deyksislarining nutq vaziyatidagi ishtirokidir. Deyksislarni chuqur tadqiq etgan olimlardan ustoz Sh. Safarov vaqt deyksislarini "zamon deyksislari" sifatida talqin etgan hamda ularning nutq vaziyati uchun asos bo'lib xizmat qilishini qayd etgan (Сафаров, 2008). Darhaqiqat, so'zlashuvda zamon tushunchasining anglashinuvi, nutqni yanada mufassal tushunishni taqozo etishi tabiiy. Shu sababdan ham, vaqt deyksislarini o'rganish va ularni so'zlashuvda to'g'ri qo'llash muhim masala.

Nutq vaziyatini taqozo etuvchi deyksisning yana bir turi, albatta, joy deyksislaridir. Joy deyksislari ham temporal deyksislar kabi har bir nutq vaziyatida ishtirok etadi. Bunga sabab, nutq vaziyatining qaysidir bir hududda olib borilayotganligidir. Joy deyksislari bu nutq amalga oshirilayotgan joyga ishora etuvchi birliklardir. Aksar hollarda ular ham ravish so'z turkumi bilan ifodalanadi. Masalan: "bu yerda" ravish birligi nutq vaziyatining qayerda olib borilayotganligiga oydinlik kiritadi. Agarda u nutq vaziyatida bevosita ishlatilmasa ham, nutq vaziyatidan so'zlashuvchining qayerni nazarda tutayotgani darhol anglashilinadi.

Deyksislar nazariyasidagi yana bir ko'p tadqiq etilayotgan turlardan biri, shubhasiz, diskurs deyksislaridir. Diskurs deyksislari ham, boshqa deyksislar singari ishora vazifasini bajaradi, ammo ular, aniq bir shaxs, makon yoki zamonga emas, balki gapda, o'zidan oldin kelgan gapga yoki hodisalarga ishora vazifasida keladi. Diskurs deyksislarining ahamiyatli jihati shundaki, ular faqat jonli muhitdagi vaziyatga ishora qiladi. Ya'ni so'zlovchi gapirayotgan nutqidagi gaplarga. Masalan, *Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu masalani diqqat bilan o'rganib chiqish kerak.*

Bu gapda "yuqorida" so'zi diskurs deyksisi vazifasida keladi.

Bugungi kun tilshunoslari uchun ijtimoiy deyksis tushunchasi ham yangi tushuncha emas. Ularni o'rganish ham bugungi kunga qadar diskurs deyksislarini tadqiq etishdek muhim masala bo'lib qolmoqda. Bunga sabab ijtimoiy deyksislarining ifodalanishida rang-baranglik, hamda har bir tilda mavjud bo'lgan o'ziga xos ifoda vositalari. Ilk bora ijtimoiy deyksislarni deyksisning alohida bir turi sifatida o'rganish Ch. Filmor ma'ruzalarida keltirilgan. Aynan u ijtimoiy (sotsial) deyksislarining ahamiyati haqida yetarlicha faktlar keltirib o'tgan. Ijtimoiy deyksislar ham barcha deyksis turlari kabi ko'rsatish vazifasini bajaradi, ammo ularning nimani ifodalab ko'rsatayotganini aniqlash birmuncha e'tibor talab qiladi. Deyksislarni tadqiq etish jarayonida nutq egalarining ijtimoiy mavqega ishora qilish jarayoni ijtimoiy deyksis holatini yuzaga keltiradi. Shu jihatidan bu vaziyatni ijtimoiy holat deyksislari sifatida o'rganish asosliroq hisoblanadi (Дрига, 2008). Ijtimoiy holat deyksislari tilda asosan olmosh, shuningdek, ijtimoiy xoslangan leksik birliklar, murojaat shakllari va ayrim qo'shimchalar yordamida hosil qilinadi.

Deyksislar asosan shaxs, makon, zamon, diskurs hamda ijtimoiy deyksis turlari doirasida o'rganilsa-da, o'zbek tilshunosligida deyksis nazariyasini chuqur tadqiq etgan olima R. Davlatova deyksis hodisasini naqd 10 turga ajratadi. Olimaning fikricha, o'zbek tilida deyktik birliklarning ishora obyektiga ko'ra farqlanishi orqali shaxs, predmet, belgi, miqdor, makon, zamon, ijtimoiy, emotsional, propozitiv hamda diskurs deyksislari namoyon bo'ladi (Давлатова, 2020).

Tilshunoslikda yana bir hodisa borki, uni diskurs deyksislari bilan tafovutlarini farqlash birmuncha murakkab. Bu shubhasiz, anafora hodisasidir. Bunga bir qator sabablar mavjud. Birinchidan, har ikkala hodisada ham "ishora qilish" ustuvor masala hisoblanadi. Ammo, ularni nimaga ishora qilishiga qarab birmuncha farqlash mumkin. Masalan, diskurs deyksislari

nutqning o'zidan oldingi, keyingi gaplar va yoki jumla hamda boblarga murojaat qiladi. Anafora esa gapdan oldin aytib o'tilgan mavjud obyekt, shaxs yoki hodisaga ishora qiladi. Agarda ishora nutqdan keyingi obyekt, predmet yoki hodisaga ishora qilsa kataforik hodisa bo'lib, uning ham ahamiyati anafora bilan bir xil bo'lib faqatgina, o'rin almashishi orqali namoyon bo'ladi va boshqa barcha anafora xos xususiyatlar saqlanib qoladi. Ikkinchidan esa, har ikkisinin referensiya hodisasiga bog'liq xususiyatlaridir. Biroq, ushbu hodisada ko'proq diskurs deysislari faol ishtirok etadi va anafora hodisasi asosan koreferentlik (Levinson, 1983) pozitsiyasida keladi. Ya'ni anafora hodisasini tahlil etish jarayonida uning ikki yoki undan ortiq lisoniy birliklarning bir referentga ishora qilishi orqali aniqlash imkoni mavjud. Diskurs deysislari esa to'g'ridan-to'g'ri nutqqa (oldin yoki keyin keladigan) ishora qiladi. Yana bir farqi shundaki, diskurs deysislari mavhum, anafora esa aniq bir shaxs, narsa yoki hodisani ifodalaydi. Shu jihatlar orqali ularni farqlashni nisbatan osonlashtirish mumkin.

Deyksislarni o'rganishdagi zamonaviy tadqiqotlardan yana biri, deyktik vositalarni paralingvistika doirasida o'rganishdir. Bu yo'nalish nisbatan yangi bo'lib, asosan, imo-ishoralari orqali muloqot jarayoni amalga oshirilishini tadqiq etadi. Deyksislarni paralingvistika doirasida o'rganish esa, muloqot jarayonini yana yaxshiroq anglashga yordam beradi. Bizga ma'lumki, inson beixtyor yoki ixtiyoriy tarzda so'zlashuv jarayonida imo-ishoralardan foydalanadi. Bu esa so'zlovchi nutqiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ushbu usul orqali so'zlovchi nutqini osonroq, tushunarliroq, aniq va lo'nda qilib amalga oshirishga harakat qiladi. Ba'zi hollarda esa paralingvistik vositalar nutqqa emotsiya ham qo'sha oladi. Nutq vaziyatida paralingvistik vositalarning ayrimlari ishora funksiyasida kelgani uchun biz ularni deyktik vositalar safiga kirita olamiz. Gaplarda bu kabi deyktik

vositalarning qancha miqdorda kelishi va qanday uslubda kelishi nutq vaziyatiga va so'zlovchining axborot yetkazib berish uslubiga bog'liq bo'ladi. Ayrim hollarda esa gaplar to'liq imo-ishoralardan tashkil topishi ham mumkin. Jahon tilshunosligida deyktik vositalarni paralingvistika doirasida o'rgangan olim G.Kreydlin paralingvistik deysislarni ikki turga bo'lib o'rgangan (Крейдлин, 2008). Ular ishoraga xoslangan va tavsiflovchi deyktik vositalar bo'lib, ular orasida tafovutlar mavjud. Birinchi turdagi deyktiklar faqatgina ishora funksiyasida kelsa, tavsiflovchi xarakterdagi deyktik belgilar, so'zlovchining emotsiyasi va ko'rsatilayotgan obyektning tavsiflovchi belgilarini namoyon etadi. Bizga ma'lumki, jestlar odatda qo'l va barmoq harakatlari, ko'z va qosh hamda lab ishoralari orqali amalga oshiriladi. Deyktik vositalar o'rnida kelganda esa aynan ular tasvirlaydigan ishora belgisini ko'rsatib beradi. Masalan, makon deysislari qo'llanilganda, *bu yerda, u yerda* kabi ishoralar ko'rsatkich barmoqning uzoqni yoki yaqinni ko'rsatib berishi orqali namoyon etiladi. Shuningdek, jestlar deyktik vositalar bilan kelganda, vaziyatni yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi va bu bilan so'zlovchi nutqiga aniqlik kiritadi. Deyktik vositalar asosan, olmosh va ravish so'z turkumlari bilan ifodalanar ekan, jestlar ham ularni ifodalab keladi.

Xulosa

Deyksislarni o'rganish tilshunoslik fani uchun yangilik bo'libgina qolmay, bir necha asrlar oldin ham tadqiq etilgan pragmatikaning asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi. Ammo, zamonlar osha bu masala borasidagi yangi qarashlar o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, tilshunoslar diqqatini tortib kelmoqda. Bunga sabab, deysislarning jonli nutq muloqotining ko'rsatkich birlari bo'lganligi hamda nutq vaziyatiga va uning kommunikativ maqsadlarini oydinlashtirishda tutgan ahamiyatidir. Shuningdek, deysis turlarini tadqiq etish ham muhim masala bo'lib, deysislarni o'rganish sohasini yanada boyitadi.

References:

1. Бюлер, К. (2000). *Теория языка. Репрезентативная функция языка*. Москва: Прогресс.
2. Бенвенист, Э. (1974). *Общая лингвистика*. Москва: Прогресс.
3. Крейдлин, Г. Е. (2008). Механизмы взаимодействия вербальных и невербальных единиц в диалоге: Дейктические жесты и речевые акты. В *Труды Международной конференции «Диалог 2008»*. 248–253. Москва.
4. Давлатова, Р. Ҳ. (2020). *Ўзбек тилининг дейктик бирликлари* (Докторская диссертация). Тошкент.
5. Дрига, С. С. (2008). *Социальный дейксис дискурса массовой коммуникации* (Автореферат кандидатской диссертации). Ташкент.
6. Сафаров, Ш. (2008). *Прагмалингвистика*. Ташкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.
7. Fillmore, C. (1971). *Santa Cruz lectures*. Berkeley: University of California.
8. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press.